

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA BOLALAR LUG'ATINI BOYITISHDA TA'LIMIY O'YINLARNING AHAMIYATI

F.M.Yusupova

*Farg'ona pedagogika kolleji direktori,*

Z.A.Maxmutaliyeva

*Farg'ona pedagogika kolleji o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ta'limiyo'yinlar bolalarning amaliy faoliyati hisoblanib, o'yin bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytirishi, shu bilan birgalikda ta'limiyo'yin bolalarning tevarak-atrof, ijtimoiy hayot to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam berishi, fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarini, sensor jarayonini rivojlantirishi, olgan bilimlarini tartibga solishi haqida na'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'limiyo'yin, ta'limiyo'yin faoliyat, ijodiy kuch, lug'at, shaxsiy tajriba, ijtimoiy hayot, sensor jarayon.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tug'risida» PF-5198-sod farmonida ta'kidlagandek, «Maktabgacha ta'lim soxasi uzuksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini xisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda olib borilayotgan uzuksiz ta'lim tizimi o'z oldiga yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash vazifasini qo'yan. Shuning uchun ham ta'lim - tarbiya jarayonida yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini boyitish, ma'nnaviy olamini kengaytirish, tafakkurini shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bunday maqsadga to'laqonli erishish uchun, albatta ta'lim - tarbiya tizimiga bilim darajasi yuqori, yuksak ma'nnaviyat soxibi, tafakkuri keng, pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollangan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana oladigan pedagoglarni jalg qilish zarur. Shu bilan bir qatorda har bir tarbiyachi pedagog ta'limiyo'yin faoliyat davomida turli ta'limiyo'yinlarni ahamiyati, ularni qo'llay olishni va bu o'yinlar orqali bolalarning bilimini mustahkamlashga erishishi mumkinligini bilishi kerak.

Ta'limiyo'yinlar bolalar lug'atini faollashtirishning asosiy usullaridan biridir. Ta'limiyo'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar ta'limiyo'yin faoliyatlarida olgan bilimlaridan, ma'lumotlaridan foydalanadilar. Ta'limiyo'yinlar bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan o'z tajribalarida, faoliyatlarida har xil usulda foydalanishlari uchun imkoniyat yaratib beradi. Shu bilan birgalikda ta'limiyo'yin bolalarning tevarak-atrof, ijtimoiy hayot to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatadi, fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarini, sensor jarayonini rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi.

Ta'limiyo'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi, mazmuni, turlari har bir yosh guruhining o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, bu o'yinlarning tutgan o'rni va vazifasi, mazmunli o'tkazish uslublari turli yosh uchun alohida belgilab berilgan.

Masalan, **2 yoshdan 3 yoshgacha** bo‘lgan bolalar bilan o‘tkaziladigan ta’limiy o‘yinlarning asosiy maqsadi- bolalarni ranglarni bir-biridan farqlashga va nomini aytishga o‘rgatish, har xil o‘lchamlarning (katta, kichik) shakllarini bilishga, ko‘rib va eshitib idrok etish, diqqatni, mayda harakatlarni o‘stirishga yordam beradigan, lug‘atini boyitadigan, faollashtiradigan o‘yinlar o‘tkazishdan iborat.

**4-5 yoshgacha** bo‘lgan bolalar bilan o‘tkaziladigan ta’limiy o‘yinlarning asosiy maqsadi-turli narsalar va ularni yasash uchun ishlatiladigan materiallarning nomlari (yog‘och, temir, chinni, plastmassa) va ularning xossalarni bilib olish, narsalarning tashqi ko‘rinishiga qarab bir-biriga taqqoslash, guruhlarga ajratishga o‘rgatishdan iboratdir

**5-6 yoshda esa ta’limiy o‘yinlar** bolalarning kuzatuvchanligini, narsalarni sinchiklay bilish, bir-biriga taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni (rangi, shakli, katta- kichikligi, materialini) aytib bera olish malakalarini tarbiyalashga qaratiladi.

**6-7 yoshli bolalar bilan o‘tkaziladigan** ta’limiy o‘yinlar bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklik, aqliy vazifalarini mustaqil hal qilish, narsalarni turkumlarga (guruhlarga) ajratish, ranglar va ulardagи nozik ayirmalarini bir-biridan farqlashga o‘rgatish maqsadida o‘tkazish nazarda tutilgan.

Yuqorida bayon etilgan barch kichik yoshda o‘tkaziladigan ta’limiy o‘yinlarning dastur mazmuni va vazifalarini amalga oshirish natijasida bolalar lug‘ati faollashtiriladi va to`ldiriladi. Har bir tarbiyachi pedagog o‘yin jarayonini jonli tashkil etishi, unga bolalarni qiziqtira olishi kerak. Buning uchun oldindan kimdan nima haqida so‘rashni belgilab oladi, o‘yining yangi variantlarini kiritadi, nutqining rivojlanishi bo‘yicha kuchli va kuchsiz bolani juft qilib qo‘yadi, mashg‘ulotda hazil-mutoyibalardan, bolalarning faol harakat qilishlaridan foydalanadi. 0‘yin sur’ati o‘rtacha bo‘ladi. Chunki bu o‘rgatuvchi o‘yin bo‘lib, bolalarning bilimlari va lug‘atlari mustahkamlanadi. Tarbiyachi oldindan belgilab qo‘yilgan so‘zlarni faollashtirishga erishish maqsadida, bolalar javobining aniqligiga diqqatni yo‘naltiradi. Ta’limiy o‘yinda hamma bolalarning faol ishtirot etishlarini ta’minalash kerak. 0‘yin oxirida xulosa qilish, o‘yinni baholash shart emas. Lug‘at ishi uchun quyidagi ta’limiy o‘yinlardan foydalanish mumkin:

„Top, nima o‘zgardi?“ o‘yini. 2—3 yoshli bolalar uchun.

**O‘yining maqsadi:** ot, son, sifat, ravish qo‘srimchalari faollashtiriladi.

**O‘yin qoidasi:** bolalar tomonidan beriladigan javob uchun aniq so‘zlarni tanlash va so‘zlarni to‘g’ri talaffuz qilishga o‘rgatish.

**O‘yin uchun material:** Bir-birlaridan bir nechta belgilari va detallari bilan farq qiluvchi rasmlar.

**Oyining borishi:** tarbiyachi rasm turlaridan foydalangan xolda bolalarni rasmdagi o‘zgarishlarni aniqlashga va to‘g’ri talaffuz qilishga o‘rgatadi.

tarbiyachi: qalamlar quti ichida edi, endi quti ustida; ikkita uzun tasmalar bor edi, endi bittasi uzun, bittasi esa kalta, o‘ng tomonda quyon o‘tirgan edi, endi qo‘g‘irchoq o‘tiribdi; qo‘g‘irchoq ro‘molda edi, endi do‘ppida.

tarbiyachi bu o‘yinda chegaralangan miqdordagi (2 tadan to 5 tagacha) o‘yinchoqlar- dan foydalanadi va ozgina o‘zgartirish kiritadi (1—2 ta o‘ymchoqni).

**Ajoyib xaltacha“ o‘yini.**

**O'yining maqsadi:** o'yin bolalar lug'atini faollashtirish, ayniqsa, kichik guruh bolalari yoki yomon gapiradigan bolalar uchun muhum ahamiyatga ega.

**O'yin uchun material:** turli xajmdagi bezakli xaltacha,

**„Ajoyib xaltacha“ o'yinining asosiy qoidasi:** xaltachaning ichida qo'l bilan paypaslab ushlangan buyum, narsa nomi aytilmaguncha, xaltachaning bog'i ochilmaydi.

**O'yin mashqining borishi:** Bu o'yin uchun ma'lum bir guruhdagi (toifadagi) buyumlar tanlanishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, xaltacha ichiga sabzavotlardan bir nechtasini solish mumkin; kichik guruhlarda shakli va materiali bo'yicha qarama- qarshi bo'lgan buyumlar (bunday buyumlarni qo'l bilan paypaslab topish oson); katta guruh bolalari uchun maishiy buyumlarning haqiqiyisidan bir nechtasi (ip kalavasi, g'altak ip, tish cho'tkasi, qalam va hokazolar)dan foydalanish mumkin. Bu o'yinda, asosan, buyumlarning nomlarini aytish faollashtiriladi („Ayt, qolingga nimani ushlab turibsan?“). Kichik guruh bolalarining lug'ati bu o'yin jarayonida ancha faollashtirilishi mumkin. (Sen qo'lingda qanday sharchani ushlab turibsan, kattami yoki kichkinami?)

Katta guruh bolalari bu o'yinda buyumlarning nomlarinigina aytish bilan chegaralanmasdan, balki buyumni xaltacha ichidan olib ko'rsatishdan avval, uning belgilarini (dumaloq, bo'rtibroq chiqqan); qanday materialdan qilinganligini (rezinadan, yog'och- dan, metalldan, loydan, matodan va boshqalar); uning ustki qismining sifatini (silliq, g'adir-budir, sovuq, sirpanchiq va hokazo) aytishi kerak. Xaltacha ichiga solinadigan buyumlar o'yin boshlanishidan avval, bolalar tomonidan yaxshilab ko'rib chi-qiladi, nomlari aytildi. Katta guruh bolalari o'z javoblariga buyumning tasvirini, topishmoq va she'rlarni kiritishlari mumkin.

**„Kinda qanday buyum?“ o'yini**

5 – 7 yoshli bolalar uchun.

**O'yining maqsadi:** 1. Nomlari bir xil bo'lgan ikkita buyumni bir-biriga taqqoslashga, buyumlarni taqqoslash jarayonida ularning eng muhim belgilarini aytishga o'rgatish; kuzatuvchanligini rivojlantirish. Buyumlarning detallari va qismlarning nomlarini bildiruvchi otlar, rangi va shaklini belgilovchi sifatlar, ravish va qo'shimchalar hisobiga bolalarning lug'atini boyitish. Buyumlarning sifatlarini va eng xarakterli tomonlarini bildiruvchi so'zlardan aniq foydalanishga o'rgatish.

**O'yin uchun material.** Bir-birlaridan bir nechta belgilar va detallari bilan farq qiluvchi buyumlarni tasvirlovchi suratlar jufti:

1.rangi,kattaligi,shakli,teshiklari soni bilan farq qiluvchi 2 ta tugmacha;

2,rangi, shakli va chizilgan rasmi bilan farq qiluvchi 2 ta likopcha (tarelka);

3,gavdasining shakli, uzunligi, qanotining, dumining rangi bilan bir-biridan farq qiluvchi ikkita baliq;

4,yo'l-yo'l va katakli, yenglari uzun va qisqa, bittasidagi cho'ntak bitta va yuqori qismiga, ikkinchisining cho'ntagi ikkita va pastki qismiga o'rnatilgan 2 ta ko'ylak;

5, andazasi va tikilgan gullari bilan farq qiluvchi 2 ta fartuk;

6,shakli va rangi bilan farq qiluvchi 2 ta chelakcha va boshqa buyumlar: ip kalavalari, sharflar, tuflilar, qayiqlar, yengil ma-shinalar va hokazo.

**O'yin mashqining borishi.** Tarbiyachi bolalar oldiga 2 – 3 juft buyumlar tasviri tushirilgan suratlarni qo'yib chiqadi va shunday tushuntiradi: „Har bir juft suratda bir xil nomdagि

buyumlar tasvirlangan: ko‘ylaklar, baliqlar, fartuklar va boshqalar. Ammo bu buyumlar bir-biridan nimasi bilandir farq qiladi. Hozir shular haqida gaplashamiz. Bitta buyum haqida men gapirib beraman, xuddi shunday ikkinchi buyum haqida men kimni chaqirmsam, shu bola gapirib beradi. Buyumlar haqida navbatma-navbat shunday gapirib beramiz. Agar men o‘zimdagи buyumning rangini aytsam, siz bam oldingizdagi buyumning rangini aytasiz, agarda men buyumning qanday shaklda ekanligini aytsam, siz ham buyumingizning shaklini aniqlab aytishingiz kerak“. Bir bolani chaqirib, unga ko‘ylak haqida gapirib berishni taklif etadi.

Tarbiyachi. Mening qo‘limdagи suratda ko‘ylak tasvirlangan.

Bola. Mendagi suratda ham ko‘ylak tasvirlangan.

Tarbiyachi. Mendagi ko‘ylakning yenglari uzun. U qish, kuz fasllari uchun mo‘ljallangan.

Bola. Mendagi ko‘ylakning yenglari kalta, bahor va yoz fasllari uchun mo‘ljallangan.

Tarbiyachi. Mendagi ko‘ylak katak-katak matodan.

Bola. Meniki yo‘l-yo‘l.

Tarbiyachi. Ko‘ylakning bitta cho‘ntagi bor, u ko‘k- rakning chap tomoniga o‘rnatilgan va h.k.

O‘yindan o‘rta guruh bolalarini hikoya qilishga o‘rgatishda, bola bilan yakkama-yakka ishslashda ham foydalilanildi.

Tarbiyachi boshqa bir bolaga birgalikda baliq haqida gapirib berishni taklif etadi.

Tarbiyachi .Mening balig`im qizil rangda.

Bola. Mening balig‘im ko‘k rangda.

Tarbiyachi. Mening balig‘imning dumi uzun.

Bola. Mening balig‘imning dumi kalta.

Shu tariqa boshqa buyumlar ham taqqoslanadi.

Yuqorida bayon etilgan ta’limiy o‘yinlardan tashqari bolalar lug‘atini faollashtirishga yordam beruvchi buyum yoki suratlar bilan tashkil etiladigan juda ko‘p o‘yinlar mavjud. Masalan, „Nima bir xil, nima har xil?“, „Kimga nima kerak?“, „Do‘konda“, „Sayohat“ va hokazo.

Tarbiyachi pedagog ta’limiy faoliyat davomida mavzuga mos turli ta’limiy oyinlarni tanlay olishi, ularni qo‘llay olishi bolalarga yangi bilim va malakalar berishda muhum ahamiyatga ega. Talimiylar o‘yinlar orqali bolalarning olgan bilimlari mustahkamlanadi, yangi bilimlarni olishga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi.

### ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagи bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. T., 1998.
2. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., Istiqlol, 2006.
3. Babayeva D.R. Nutq o`stirish metodikasi. T.: TDPU 2016-yil. O`quv qo‘llanma.
4. Арипов, З., & Сайдумарова, М. (2021). Zamonaviy o‘qitish metodlari orqali iqtidorli o‘quvchilarni tarbiylash va rivojlantirish. *Общество и инновации*, 2(12/S), 86-92.

5. Toirjonovich, A. Z. (2022). XALQ O'YINLARINING ETNOPEDAGOGIK TASNIFI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 77-81.
6. Kipchakova, Y. (2021). METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ASPECTS OF INFORMATION AND INTELLECTUAL CULTURE IN THE EDUCATION OF A DEVELOPED GENERATION. *Экономика и социум*, (6-1), 156-159.
7. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. *Теория и практика современной науки*, (5), 29-31.
8. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, M. THE IMPACT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENT KNOWLEDGE. *СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК* Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 37-38.
9. Қипчақова, Ё., Махмудова, М., & Умарова, З. (2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР МЕХНАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТИ. *Студенческий вестник*, (22-7), 9-10.
10. Қипчақова, Ё., Соибжонова, Ш., & Абдуқаюмова, С. (2021). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Студенческий вестник*, (22-7), 11-12.
11. Jabborova, M. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Экономика и социум*, (6-1), 129-132.
12. Jabborova, M. (2022). BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASH TIZIMIDA MALAKAVIY AMALIYOTNING ROLI. *Scientific progress*, 3(4), 167-173.
13. Kodiraliyevna, J. M. (2022). TARBIYACHI KASBINING MA'NAVIY AXLOQIY NEGIZLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 64-70.
14. Zhabborova, M. R. K. (2021). Мактабгача таълим соҳаси талабаларида бошқарувчанлик қобилиятларини ривожлантириш. *Молодой ученый*, (17), 394-395.
15. Dilafuz, Y., Marifatxon, J., Rasuljonovna, E. Z., & Muqaddasxon, M. (2022). MAKTABGACHA TA'LIMGA YANGICHA YONDASHUV. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 121-125.